

**"MA'RIFAT ,MUSIQIY TARBIYA VA YOSHLAR :BEHBUDIY  
IZDOSHLARI "**

*Shahrisabz davlat pedagogika nstituti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*,,San'atshunoslik'' kafedrasi katta o'qituvchisi*

***Ruziyeva Orzigel Ilyosovna***

*Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi*

***Saidova Ma'rifat***

***Annatatsiya:*** Ushbu maqolada Ma'rifat ,musiqiy tarbiya va yoshlar :Behbudiy izdoshlari haqida fikr mulohazalarini aytib o'tish kerak. Milliy va xalq musiqalari orqali ular o'z tarixini ,madaniyatini va qadriyatlarini chuqur anglaydi .Musiqa san'ati yoshlarninh estetik didini o'stiradi ,ularni nozik histuyg'ularga ,san'atni anglash va qadrlashga o'rgatadi .Yoshlar musiqa to'garaklari ansambllar ,xor jamoalari orqali jamoada ishlashni o'rganadilar .Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi .

***Kalit so'z:*** Musiqa ,san'at, bilim, malaka, ko'nikma, texnologiya, termin, estetika did, qobiliyat.

***Ключевые слова:*** Музыка, искусство, знание, умение, технология, термин, эстетика, вкус, умение.

***Аннотация:*** В этой статье рассматриваются Просвещение, музыкальное образование и молодежь: последователи Бехбуди. Через национальную и народную музыку они глубоко понимают свою историю, культуру и ценности. Музыка воспитывает эстетический вкус молодых людей, учит их иметь тонкие чувства, понимать и ценить искусство. Молодые люди учатся работать в команде через музыкальные клубы, ансамбли и хоры. Это развивает их социальные навыки.

***Keywords:*** Music, art, knowledge, skills, abilities, technology, term, aesthetics, taste, ability.

**Abstract:** This article discusses Enlightenment, musical education and youth: Behbudi's followers. Through national and folk music, they deeply understand their history, culture and values. Music cultivates the aesthetic taste of young people, teaches them to have delicate feelings, understand and appreciate art. Young people learn to work in a team through music clubs, ensembles, and choirs. This develops their social skills.

Musiqa -bu san'at emas ,balki millat ruhining jarangidir Ma'rifat va musiqiy tarbiya inson ruhiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi .Ayniqsa yoshlarni ma'naviy va estetik jihatidan boyitish , ularni musiqiy va madaniy boyliklarda bog'lashda bu ikki tushuncha juda katta ahamiyat kasb etadi .Shuningdek ,bu borada yirikk mutafakkirlar va san'atshunoslarning ishlari alihida etiborga molikdir . O'zbekiston milliy musiqa madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan shaxslar orasida Abdurauf Behbudi va uning izdoshlari alohida o'rin egallaydi .Ushbu maqolada ma'rifat va musiqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ,shuningdek Behbudi va uning izdoshlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi .

Musiqiy tarbiya ,avvalo insonning estetik qarashlarini ,ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan muhim bir jarayondir .bu jarayon nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni ,balki musiqa oqali insoniyatning eng go'zal tuyg'ularini his qilishni ham o'z ichiga oladi .Ma'rifatli inson bu nafaqat ilimli va madaniyatli ,balki ,estetik jihatidan boy ,musiqani chuqur tushunadigan va undan to'liq bahramand bo'la oladigan shaxsdir .

Musiqiy tarbiya yoshlarni ma'naviy yuksalish yo'lida ilhomlantiradi .Ularni to'g'ri tarbiyalashda musiqa ta'limi Va san'ati o'ziga hos vosita hisoblanadi .Shuningdek musiqiy tarbiya yoshlarning estetik va ahloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega .Musiqa yoshlarning qalbida go'zallikka va mexr-oqibatga intilish tuyg'ularini shakllantiradi .Milliy va xalq musiqalari orqali ular o'z tarixini ,madaniyatini va qadriyatlarini chuqur anglaydi .Musiqa san'ati yoshlarninh estetik didini o'stiradi ,ularni nozik histuyg'ularga ,san'atni anglash va qadrlashga o'rgatadi .Yoshlar musiqa

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

to'garaklari ansambllar ,xor jamoalari orqali jamoada ishlashni o'rganadilar .Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi .

Musiqa tinglash yoki ijro etish yoshlar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatada .Ular stersjni yengib o'tishga ,o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi .Musiqa bilan shug'ullanish orqali yoshlar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etadi .Bu esa ularning fikrlash doirasi kengayishiga olib keladi .

Musiqa –umuman olganda inson ruhiyatining eng nozik tuyg'ularini ifodalovch san'at turlaridan biridir degan buyuk allomalarimiz .Bu borada buyuk allomalarimiz musiqani chuqur ilmiy va falsafiy jihatidan o'rganib , uni inson ma'naviy hayotining ajralmas qismi deb baholaganlar . Bunga misol qilib jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining islo hatchchi ,ma'rifatparvar g'oyalari orqali ta'lim ,san'at ,xususan musiqa sohasida musiqiy qarashlari haqida asosiy fikrlarini keltirgan . Behbudiyning musiqaga bo'lgan munosabati ;

Mahmudxo'ja Behbudiy -XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlarining yetakchi vakillaridan biri sifatida nafaqat ilm-fan ,adabiyot va teatrga ,balki musiqaga ham alohida e'tobor bergen . U musiqani faqat ko'ngilxushlik vositasi emas ,balki yosh avlodni tarbiyalash ,ularni estetik did ,ma'naviy poklik va milliy qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida ko'rgan .

Behbudiy musiqani ma'rifat targ'ibotining samarali vositasi sifatida qadrlagan .U musiqaning inson qalbiga chuqur ta'sir qilishi ,yoshlar ongini uyg'otishi va ularni vatanparvarlik ,halollik ,ezgulik ruhida tarbiyalshdagi kuchini anglatadi .

U o'zbek xalq musiqasini qadrlagan ,bu yo'nalashdagi san'atkirlarni qo'llab- quvvatlagan .Milliy kuy va navolarni yoshlar orasida ommalashtirish tarafdoi bo'lgan .Behbudiy o'zining islihatparvarlik faoliyatida teatr,drama va musiqa uyg'unligiga e'tibor qaratgan, ayniqsa ,sahna asarlarida musiqaning kuchli ta'sir kuchi borligini ko'rsatgan .

U tashkil etgan dastlabki teatrlarda musiqiy chiqishlar qo'shiqlar ,xalq kuylaridan foydalangan . Behbudiy o'zining mashhur "Padarkush "dramasi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

orqali o'zbek jaded teatriga asos slogan .Ushbu sahna asarlari sahnalashtirilganda musiqa muhim o'rin tutgan .Behbudiy teatrda musiqaning tarbiyaviy va ruhiy ta'sirini chuqur anglagan . U spektakllarga milliy kuylar va jo'shqin ohanglar orqali joziba baxsh etishga harakat qilgan . Bu orqali u musiqani ommaga yaqinlashtirishga,u orqali ijtimoiy muammolarni yoritishga intilgan .Behbudiy uchun musiqa -xalq ruhiyatining ifodasi edi .U ruslashtirish madaniy meroslarga qarshi turgan holda ,milliy misiqiy merosni asrash va targ'ib qilish zarurligini ta'kidlagan .

Behbudiy ,ayniqsa ,musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan va bu borada o'zining izdoshlari bilan birgalikda ko'plab dasturlarni amalga oshirgan .Behbudiyning musiqaga bo'lgan munosabati nafaqat uning asarlarida ,balki uning shaxsiy faoliyatida hamm o'z aksini topgan . U misiqani tarbiya vositasi sifatida ko'rib ,uni jamiyatni ma'naviy yuksaltirishda muhim omil sifatida qabul qilgan .U shuningdek misiqani tarbiya vositasi sifatida ishlatishning yoshlar uchun qanday ijobiy ta'sirlar keltirishi mumkinligini juda yahshi tushunardi .Behbudiy o'z davrida misiqani faqat go'zal san'at sifatida emas ,balki yoshlarning o'zaro tushunishlari ,ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida ham ko'rsatayotgan edi .Behbudiyning izdoshlari ,shu jumladan u bilan yaqindan ishlagan misiqachilar va madaniyat arboblari ,uning qarashlarini davom ettirgan va ularning ta'siri ostida yangi misiqiy o'yinlar ,teatrlar va ijro uslublarini yaratganlar .Ularning har biri Behbudiyning misiqiy va ma'naviy tarbiya haqidagi g'oyalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutgan .

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy qadriyatlар asosidagi misiqa san'atini saqlab qolish bilan birga ,uni zamonaviy shakllar bilan boyitish zarurligini uqtirgan .U g'arbiy ta'lim tizimi va san'at shakllarini ham o'rganib ,ularni o'zbek misiqasi madaniyati bilan uyg'unlashtirish tarafidori bo'lgan .

Behbudiy va uning izdoshlari misiqaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini nafaqat san'at ,balki jamiyatning umumiyo rivojlanishi bilan bog'laydilar .Ularning misiqiy tarbiya buyicha olib borgan ishlari yoshlarning

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

estetik qarashlarini kengaytirishga , ularni madaniyatli va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan edi . Musiqaning ta’sirida yoshlar nafaqat badiiy didni rivijlantirish ,balki milliy va xalqiy qadriyatlarni xurmat qilishni ham o’rgandilar .Behbudiy musiqa orqali xalqni uyg’otish , madaniy yuksalishga erishish mumkinligini chuqur anglagan . Uning musiqiy qarashlari bugungi kunda ham milliy san’atimiz taraqqiyotida o’z ahamiyatini yo’qotmagan .

Hozirgi kunda ham o’tmishda qoldirgan allomalarimiz yo’llaridan davom etish maqsadida biz yoshlar kelajak avlodlarimizga milliy musiqalarimiz milliy qadriyatlarmizni yo’qotmagan holda ,yanayam to’ldirib kamchiliklarni bartaraf etgan holda milliy musiqamizni yetkazmog’imiz darkor .Bu borada musiqa darslari orqali o’quvchilarga xalq musiqasi ,ananaviy kuylar va qo’shiqlarni o’rgatish ,ularni tarixiy va madaniy ahamiyatini tushuntirish mumkin .Bu orqali o’quvchilar milliy merosimizga bo’lgan hurmatini oshiradi. “O’zbekiston – Vatanim manim”kabi qo’shiqlar orqali o’quvchilarda vatanparvarlik tuyg’o’sini rivojlantirish mumkin . Bunday asarlar o’quvchilarda o’z yurtiga bo’lgan muhabbatini kuchaytiradi .

Hozirgi kunda milliy va marifiy g’oyalarni musiqiy ifodalar orqali yetkazish –yosh avlodni tarbiyalashga samarali vositadir . musiqa orqali nafaqat vatanparvarlik ,balki estetik did , milliy o’zlik , qadriyat va ma’naviyatni chuqur anglash hissi shakllanadi .An’anaviy kuylar ,zamonaviy ruhdagi milliy qo’shiqlar va musiqali sahma asarlari orqali yoshlar qalbiga ,ezgulik ,birlik va taraqqiyot g’oyalari singdiriladi . Bu yo’ldagi izlanishlar ta’lim madaniyat va san’at sohalarining o’zaro hamkorligida davom etishi zarur . Musiqa –bu faqat san’at emas ,balki millat ruhining jarangidir ...

### **FOYDALANILGAN ADABIYATLAR.**

- 1.O. I. Ruziyeva „Bolalarning musiqiy ta’limi” O’quv qo’llanma. Qarshi. „Intelekt” nashriyoti 2023 .
- 2.Muhiddin Abdullayev, Husniddin Tursunov „Maktab repertuari “ O’quv qo’llanma Qarshi „Nasaf” NMIU 2022.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

- 3.Muhiddin Abdullayev „Maktabgacha ta’limda musiqa o’qitish metodikasi” „Nasaf” NMIU 2024
- 4.Sharipova G. Xodjayeva Z. “Musiqa o‘qitish metodikasi”. Darslik Toshkent „NIF MISH” 2020.
- 5.G.M. Sharipova, G.T. Tojiyeva . Musiqa metodikasi O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2012.